Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

O'TGAN ZAMON FE'L SHAKLLARINING BADIIY DISKURSDA QO'LLANISHI ("O'tkan kunlar" romani asosida)

Jamoliddin Qo'ldashaliyevich Ismonaliyev*

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'ldashaliyevich Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

✉ ismonaliyevjamoliddin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi o'tgan zamon fe'l shakllarining diskursiv qo'llanishi tahlil qilingan. Grammatik zamon kategoriyasining narrativ diskurs, muallif ovozi va syujet qurilishidagi roli "O'tkan kunlar" romani matnlari asosida o'rganilgan. Tadqiqot mobaynida o'tgan zamon fe'l shakllari faqatgina vaqtni ifodalovchi vosita emas, balki ular matnni tashkil qiluvchi, hikoya rivojini belgilovchi va voqelikka munosabatni ifodalovchi funksiyalarga ega ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar

diskursiv tahlil, fe'l, affiks, narrativ, evidensiallik, simfonik to'lqin, retroaktiv, diskursiv effekt.

DOI: 10.5281/zenodo.21743171

KIRISH

Grammatik zamon kategoriyasi asosan vaqt munosabatlarini ifodalash vositasi sifatida o'rganilgan, ammo diskursiv tilshunoslik va kognitiv grammatika sohasidagi tadqiqotlar bu kategoriyaning matn tashkil etish, muallif fikrini ifodalash va pragmatik ma'nolarni uzatishdagi roliga alohida urg'u bermoqda. Ushbu maqolada o'zbek tillidagi o'tgan zamon fe'l shakllarining badiiy matnlarda qanday diskursiv va kontekstual vazifalar bajarishini tahlil qilish maqsad qilingan.

Tadqiqotning **dolzarbligi** shundan iboratki, o'zbek tilidagi o'tgan zamon fe'l shakllarining diskursiv qo'llanishida bir qator universal va til-spesifik xususiyatlar kuzatiladi. Bu esa tadqiqotlar uchun boy material taqdim etadi. Tadqiqot **ob'ekti** sifatida o'zbek tilidagi o'tgan zamon fe'l shakllari, **predmeti** sifatida esa ularning badiiy matnlardagi diskursiv va kontekstual qo'llanish xususiyatlari belgilangan.

Maqolaning **maqsadi** — "O'tkan kunlar" asaridan olingan misollar orqali o'tgan zamon fe'l shakllarining diskursiv funksiyalarini aniqlash va tahlil qilish.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbek tilida **–di** affiksi bilan hosil qilinadigan o'tgan zamon fe'l shakli (*O'tgan zamon aniqlik fe'li*) funksional jihatdan ingliz tilidagi *Past Simple* zamoniga yaqin hisoblanadi. Bu ikki zamon o'rtasida ko'p o'rinlarda umumiy jihatlar mavjud.

O'zbek tilida ham *o'tgan zamon aniqlik fe'li* badiiy diskursda narrativning asosini tashkil qiladi. U orqali voqealar rivoji, syujet zanjiri tashkil etiladi.

*Bechora ona **chidalmadi**, qabrni quchog'lab **uvvos tortdi**. Otabek ham qabr yonig'a tiz cho'kib, ko'z yoshisi bilan **tuproqni loy qila berdi**... Qutidor lavha qarshisida edi. Lavhani o'qub chiqgandan keyin ul ham piq-piq **yig'lab yubordi**. Yarim soat chamasi **shul holda qoldilar**. Qur'on o'qushg'a hech kimda majol yo'q edi. Qarshidag'i binoga Yusufbek hoji tarafidan qo'yilg'an qori bularning holiga **tushundi**. Sekin-sekin qorixonadan **chiqib keldi** va narida o'lturib **qur'on o'qudi**. Oftob oyimning nolasi bosilsa ham, lekin **ko'z yoshisi tiyilmadi**. Bir ulgina emas, anovlar ham shu holda edilar. Fotiha tortilg'andan so'ng qutidor va Oftob*

*oyim qorig‘a **pul berdilar**. Qori ketkandan keyin har qaysilari o‘zlarini bosib alohida-alohida qur’on o‘qub **bag‘ishladilar**, so‘ngra ohista-ohista yo‘l olib qabr bilan **vido’lashdilar**. (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, 2018-yil, 410-bet.)*

O‘tkan kunlar asaridan olingan ushbu matnda A.Qodiriy yigirmadan ortiq o‘rinda **–di** affiksini simfoniya kabi boshqarib, epik to‘lqin yaratadi. Barcha o‘rinlarda **–di** affiksi mustaqil ovozga ega bo‘lsa-da, ularning barchasi birgalikda “*aza va insoniy birdamlik*” ruhini yaratadi. A.Qodiriy ijodida o‘tgan zamon fe’l shakllarining, xususan, **–di** affiksining qo‘llanishi Ch.Dikkens asarlarida *Past Continuous* va *Past Perfect Continuous* zamonlarni epik narrativ uchun ishlatilishiga o‘xshab ketadi. Bu ikki yozuvchi bu grammatik zamonlardan grammatik vosita emas, ma’no yaratuvchi kuch sifatida foydalangan. Shuningdek, A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Ch.Dikkensning “A Tale of Two Cities” (Ikki shahar hikoyasi) asarlarida ijtimoiylik, kuchli badiiy tasvir kabi umumiy jihatlarga guvoh bo‘lamiz. Matnda **–di** affiksi bilan keltirilgan fe’llarning diskursiv tahlil qilib chiqamiz:

Chidalmadi – ona ko‘z yoshini tiyishga harakat qildi, ammo bardishi yetmadi. Bu o‘rinda inson ojizligining grammatik ifodasi berilgan;

yig‘lab yubordi – kutilmagan, to‘satdan, nazoratdan tashqari boshlangan harakat (Qutidor yig‘lashni hohlamagan edi);

tushundi – bir lahzali idrok, hech kimdan so‘ramasdan o‘zi anglab yetdi, hamdardlik holatiga ishora beradi;

qur’on o‘qudi (diniy majburiyat) –> qorig‘a pul berdilar (ijtimoiy majburiyat)–> qur’on o‘qub bag‘ishladilar (ruhiy majburiyat)–> vido’lashdilar (insoniy majburiyat) – bu jumlalardagi fe’llar qabriston sahnasidagi marosim ketma-ketligini ifodalab, har bir fe’l bir-birini to‘ldiruvchi simfonik to‘lqinga o‘xshaydi;

O‘tgan zamon aniqlik fe’li va *Past Simple* zamonlari badiiy diskursda ko‘p jihatdan bir-biriga mos, ammo *o‘tgan zamon aniqlik fe’li* “evidensiallik” (guvohlik, ko‘z o‘ngiga sodir bo‘lganlik) xususiyatini ifodalay olgan bir paytda *Past Simple* zamonida bu holat aniq kuzatilmaydi.

O‘zbek narrativida **-gan edi** fe’l shakliga *Past Perfect* zamonining ingliz tilidagi muqobili sifatida qarash mumkin, ammo bu shaklning qo‘llanish doirasi nisbatan kengroq. **-gan edi** fe’l shakli narrativda retroaktiv (ortga qaytish) voqealarni bayon qilish vazifasini bajaradi.

Ziyo shohichi o‘z tomonidan ham yana bir muncha gaplarni qo‘shib chatib, so‘zini tugatdi. Qutidor yaxshig‘ina o‘ng‘aysizlangan edi. Qutidorgina emas, sovchilar ham o‘ng‘aysizlangan edilar. Masalaning noziklig‘iga uchavlari ham tushunarlar va shuning uchun ittifoq qilgandek chuqur bir sukutka ketgan edilar. (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, 2018-yil, 44-bet.)

Sovchilik sahnasidan olingan ushbu matnda uch o‘rinda **-gan edi** shakli qo‘llangan (*o‘ng‘aysizlangan edi, o‘ng‘aysizlangan edilar, sukutka ketgan edilar).*

“*So‘zini tugatdi”* jumlasida **-di** affiksi aniq, tugallangan, tashqi harakatni ifoda etadi. “*O‘ng‘aysizlangan edi, o‘ng‘aysizlangan edilar, sukutka ketgan edilar”* jumlalari jarayon amalga oshgani, ammo holat hali mavjutligini, personajlarning ichki holatini ochib beradi. “*O‘ng‘aysizlangan edi”* individual holatni, “*o‘ng‘aysizlangan edilar, sukutka ketgan edilar”* kabilar esa jamoaviy holatni ko‘rsatadi. “*Yaxshigina, chuqur*” kabi elementlar holatni kuchaytirishga hizmat qiladi. “*Ittifoq qilgandek*” jumlasi kuchli diskursiv effekt yaratadi. Uchovlari ham ayni vaqtda, bir xil tarzda sukutga ketganliklari, ammo bu tasodif emasligi, bir-birini o‘zaro tushunishning belgisidir.

O‘zbek tilidagi badiiy diskursda **-ar edi**, **-moqda edi**, **-yotgan edi** kabi shakllar ingliz tilidagi *Past Continuous* zamoni singari o‘tmishda davom etayotgan harakatni yoki fon holatini (background) ifodalab beradi. Tadqiqotimiz mobaynida **-yotgan edi** shaklini mumtoz adabiyotda, jumladan, “O‘tkan kunlar” asarida uchratmadik.

-ar edi va **-moqda edi** kabi shakllar badiiy diskursda fon (background) yaratishda muhim ahamiyat kasb etishiga guvoh bo‘ldik.

Qish kunlari bir tutam, «ha, deguncha» kech bo‘ladir. Bu kun ham «ha deguncha»ga ham qolmay kech bo‘lg‘an, mehmonlarning kelishkaniga yarim soatlab vaqt o‘tkan edi. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to‘la to‘kis davom etar edi. To‘ybeka ichkari bilan tashqarig‘a

yugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi. Xizmat tugalayozg‘andan keyin To‘ybeka o‘zining sovub qolg‘an oshini yemak uchun Oftob oyimlar yonig‘a o‘lturdi (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, 2018-yil, 31-bet).

Matnda **-ar edi** shakli orqali uzoq, davomiy, takroriy holat fon sifatida yaratiladi. “*Kech bo‘ladir*” fe’li umumlashgan, doimiy harakatni ifodalab, odatiylik maydonini yaratadi, ya’ni qish kunlari doim shunday tez tugaydi. “*Kech bo‘lg‘an*” jumlasi umumiylikdan xususiylikka o‘tishni ifodalaydi – faqat bu kun. *Kutar, davom etar edi, yangilar, tashir edi* kabi fe’llar o‘ziga xos ritm yaratadi – sokin boshlangan harakat bu fe’llar orqali mutassil tezlashib, jadallashib boradi. **-di** affiksi bilan hosil qilingan “*o‘lturdi*” fe’li bir lahzali to‘xtash, davomiy ritmga kontrast yaratadi. Bu huddi sokin boshlanib, toboro tezlashib boradigan, birdan to‘xtaydigan musiqaga o‘xshaydi.

“*Kutar, yangilar, tashir edi*” fe’llarida ijtimoiy diskurs, xo‘jayin va xizmatkor o‘rtasidagi sinfiy farq namoyon bo‘ladi. “*Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar*” jumlasida Qutidor mehmonlar yonida o‘tirgan xo‘jayin sifatida gavdalanadi, “y*ugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi*” jumlasida esa yelib, yugurib hizmat qilayotgan xizmatkor obrazi tasvirlanadi.

Matnda **-ar edi** shakli orqali To‘ybeka portreti ustalik bilan chizib beriladi. Muallif “To‘ybeka mehnatkash edi” deb yozmaydi, ammo kitobxon “*ichkari bilan tashqarig‘a yugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi*” jumlasidan uning mehnatsevar ekanligini, “*o‘zining sovub qolg‘an oshini yemak uchun Oftob oyimlar yonig‘a o‘lturdi”* jumlasidan uning o‘zini unutgan, fidoyi xizmatkor ekanligini osonlikcha anglaydi.

-moqda edi fe’l shaklini badiiy diskursda muallif nutqida uchratamiz. Misol:

Ul o‘g‘lining qutilishi yo‘lida har bir mulohaza ko‘chasiga kirib chiqmoqda, ammo har birisidan ham bo‘sh va umidsiz qaytmoqda edi. Eng so‘ng o‘g‘lig‘a hujum qilg‘an bu falokatning tadbiridan aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to‘xtadi va shundan so‘ng — “Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog‘ini ko‘rsatma”, dedi va ko‘z yoshlari bilan soqolini yuvdi (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, 2018-yil, 94-bet).

“*Kirib chiqmoqda*” va “*qaytmoqda*” fe’llari parallel qo‘llangan bo‘lib, “*edi*” to‘liqsiz fe’li har ikki fe’lga tegishli. *“Har bir mulohaza ko‘chasiga kirib chiqmoqda”* jumlasi Yusufbek hojining umid bilan yechim izlayotgani, “*bo‘sh va umidsiz qaytmoqda edi*” jumlasi esa uning umidsizlik holatini ifoda etadi. “*Kirib chiqmoqda*” va “*qaytmoqda*” fe’llari takroriy va davomli harakatni ifodalash bilan birga ruhiy holatni ochib beradi. *“Aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to‘xtadi*” kabi jumlalardagi **-di** affiksi progressiv harakatlarning to‘xtash nuqtasini hamda to‘liq ojizlikni ifodalaydi. *“Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog‘ini ko‘rsatma”* jumlasi Yusufbek hojining Allohga bo‘lgan to‘liq taslimiyati ifodasidir. “*Ko‘z yoshlari bilan soqolini yuvdi*” jumlasi keksa, ojiz otaning ichki his-tuyg‘ularining jismoniy, tashqi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy diskursda o‘tgan zamon fe’l shakllari faqatgina vaqtni ko‘rsatuvchi vosita emas, balki voqealar ketma-ketligini tashkillash, asosiy hodisalar tizimi (foreground) va fon hodisalarini (background) farqlash, retrospektiv (ortga qaytib) ma’lumot berish, qahramon psixologik holatini ifodalash kabi diskursiv vazifalarni bajaradi. Bunday diskursiv vazifalar tilning narrativ tuzilishida inson fikrlashining asosiy sxemalarini ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 416 b.